



O'QUVCHILARNING MA'NAVIY-IMMUNOLOGIK TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISH TEKNOLOGIYALARI

dekani dots. I.X.Turakulova

JDPU doktoranti Sh.M.Toshmamatova

JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti

Annotatsiya. Bolalarni məktəbdə o'qitishning samaradorligini ko'p jixatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi. Bu o'qituvchining o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi ijtimoiy psixologik o'rni, u bajarishga tayyorlangan bo'lishi lozim. 16-17 yoshli bolalar o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, yangilik, yangilik kiritish texnologiyasi, o'qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishi, yangilik kiritish texnologiyasi, ma'naviy immunologiya.

Annotation: The effectiveness of teaching children at school depends in many ways on their level of preparation. The unique aspect of this teacher is the new socio-psychological role of the student, which he must be prepared to fulfill. 16-17-year-old children begin to have the ability to manage themselves and control their actions.

Аннотация: Эффективность обучения детей в школе во многом зависит от уровня их подготовки. Уникальной особенностью этого учителя является новая социально-психологическая роль ученика, к выполнению которой он должен быть готов. У детей 16-17 лет появляется способность управлять собой и контролировать свои действия.

Key words: innovation, innovation, innovation technology, teacher's innovative activity structure, innovation technology, spiritual immunology.

Ключевые слова: инновация, инновация, инновационная технология, структура инновационной деятельности педагога, инновационная технология, духовная иммунология.

Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev umumiyligi o'rta ta'lim masalalariga bag'ishlangan video selektorlarining birida quyidagicha fikrlarni bildirib o'tgan: "Maktab masalasi bu-kelajak masalasi, ta'bir joiz bo'lsa, bu hayot-mamot masalasi. Bu butun jamiyatimizning ishiga aylanadigan vaqt keldi. Mana shunda biz oldimizga qo'ygan yuksak xalqimizni ishonchini qozonish va odamlarni rozi qilish nuqtai nazaridan har bir qadamimiz, har bir qarorimiz, farmonimiz, qonunimiz o'zi tezroq yuradi. Uni odamlar qabul qiladi. Bugun o'zimizga savol beraylik, eng katta kamchiligimiz nimada? Kadrlarning saviyasi, bilimi, dunyoqarashi, vatanparvarligi yo'q desak, bu adolatdan bo'ladi. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamlarni jamiyatimizni o'zgartirib bo'lmaydi. Bu aksioma, buni hech kim inkor qila olmaydi. Shuning uchun bugungi muhokamani oddiy bir yig'ilish yoki oddiy bir selektor emas, balki davlat rahbarining sizlarga, butun xalqimizga va yoshlarga murojati deb qabul qilishingizni



istar edim. O'zbekiston sharoitida bugundan boshlab eng hurmatli,e'zozli inson-muallim. Davlatimiz taqdiri,millatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog'liq ekanligini hech kim, hech qachon inkor qila olmaydi" Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko'tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko'lamda kompyuterlashtirish, iste'mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo'lga qo'yish talab etilmoqda. Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo'lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to'laqonli xabardor bo'lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo'yadi. Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;
- o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;
- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilararning mavjud bilimlarini uzlusiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;
- Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar.

Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir. Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy o'rinn tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayon kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi: Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuning mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi. Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar: Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtijoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart-sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi. Innovatsion pedagogika asoslari bo'yicha dasturning asosiy bo'limlari «innovatsiya», «yangilik», «ta'limning innovatsion jarayonlari», «o'qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishi»,



«yangilik kiritish texnologiyasi» tushunchalarini ochib berishga mo'ljallangan. Innovatsion ta'lif tizimida bolalarning maktab haqidagi tasavvurlarini aniqlash uchun savolnomalar (motivatsion tayyorgarlik).

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqealari, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan

his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, o'quvchida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi.

Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Ta'lif bilan birgalikda tarbiya jarayoni ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda tarbiya metodlaridan foydalanish yanada ko'proq samara beradi. Biz o'quvchilarning ma'naviy immunologik tarbiyasini shakllantirish uchun suhbat va hikoya metodlaridan foydalansak ayni maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbli, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur.

Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

- a) etik mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvor o'rinn tutuvchi ijtimoiy munosabatlari, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar);
- b) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlari, inson go'zalligi);
- v) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlari va boshqalar);
- g) ta'lif va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. O'quvchilar o'z ota-onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar. Namunada xalq pedagogikasi g'oyalaridan ham foydalilanadi. Ota-onalar o'z farzandlarini hamisha katta hayotiy tajribaga ega, dunyoqarashi va bilim doirasi keng kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, «qush uyasida ko'rganini qiladi». Juda oddiy xulosa. Shu oddiy xulosa ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligini hamisha ham fahmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq «uyingda



tartibli bo'l, aks holda bolang ko'chada tartibsiz bo'ladi», «bola oldida birovlarining g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi» demoqchi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz" [45-b]
2. O'. Qobilova "Tarbiya metodlari" [26-b]
3. I.X.To'raqulova "Ma'naviy immunologik tarbiya tizimini yaratish va undan amaliyatda foydalanish" [48-b].
4. M.Y.Egamnazarov "Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativligini rivojlantirishda uzluksizlik va uzviylik" "Uzluksiz ta'llim" jurnali 2019-yil 6-son 38-bet